

ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KOMPETENTLI YONDASHUVNING O'RNI

Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tel: (99) 864-09-68, E-mail: bozorovo@inbox.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitishning kompetentli yondashuvga asoslangan shakli, uni qo'llash asoslariga doir pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv.

To'xtovsiz rivojlanayotgan dunyoda shaxsni shakllantirish Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini muntazam o'zgaruvchan sharoitda kasbiy faoliyatga tayyorlashni talab etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'limning barcha bosqichlaridagi maqsad, vazifalari va natijalarining yangiligini anglash muhim hisoblanadi. Asosiysi, qotib qolgan bilimlar emas, balki qo'llanilish, foydalanish mumkin bo'lgan, faol, vazifalarni bajarishga imkon yaratuvchi va faoliyat tajribasini oshiruvchi bilimlardir. Zamonaviy bosqichda ta'lim natijalari "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari orqali ifodalanadi. Kompetensiya bilimlarga yangi, faol statusni beradi. T.M.Razuvayeva B.D.Yelkoninning ushbu so'zlarini misol qilib shunday deydi: "Biz bilimdan madaniy buyum sifatida voz kechmadik, aksincha bilimning ma'lum shaklidan ("har extimolga qarshi" bilimdan, ya'ni axborotdan) voz kechdik". Birinchi o'ringa "insoniyat tomonidan yaratilgan ulkan ma'lumotlar saqlanmasidan kerakli bilimlarni istalgan vaqtda topish va ajratib olishga tayyor bo'lish qobiliyati" chiqdi. Kompetentli yondashuvning asosiy tomonlarini o'rganish uning mohiyatini aniqlash, zamonaviy bosqichdagi professional pedagogik ta'limning nazariyasi va amaliyotga joriy etilishining o'ziga hosligini izohlashdan iborat.

Kompetentli yondashuv o'zida o'quv jarayonini kompetensiyalarni ajratishga asoslangan maqsadlarini aniqlashni, tarkibini saralashni, natijalarni baholashni, tashkiliy va texnologik ta'minotni oladi. Ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida ahamiyatga ega bo'ladi. Kompetentli yondashuv bilimlarni o'zlashtirish, vazifalarni yecha olish, muammolarni hal eta olish, o'z tajribasiga ega bo'lishdan iboratdir. Kompetentli yondashuv zaruriyati jamiyat hayotidagi katta o'zgarishlarda, jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda namoyon bo'lib, bu esa professional ta'limni jamiyat talablaridan kelib chiqib takomillashtirishni va ta'lim maqsadi, vazifalari va tarkibini aniqlashda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Kompetentli yondashuv ta'lim va mehnat olami o'rtasida aloqa o'rnatadi, u ta'lim maqsadlarini kompetensiyalar majmuasi ko'rinishida aniq shakllantirishga va bitiruvchining tayyorgarlik darajasini baholashga imkon beradi. Bundan tashqari, kompetentli yondashuv –

bu akademik mobillikni kengaytirish, Boloniya jarayoni ishtirokchi mamlakatlar diplomlariga moslikni oshirish yo'lidir.

Kompetentli yondashuv olimlar tomonidan ta'limdagi faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan (M.V. Dubova, A.G. Bermus), kulturologik (E.O. Ivanova) yondashuvlar bilan taqqoslanadi. Kompetentli yondashuvning yuqorida sanalgan yondashuvlardan farqi, bizningcha, "muammoli vaziyat" va "tajriba" kabi tushunchalar bilan bog'liq. Kompetentli yondashuv tepadan pastga qarab harakatga, ya'ni muammoli vaziyatdan uni yechish uchun bilimlarni saralash va qo'llashga asoslangan. U o'z ichiga bilimlarni o'zlashtirish va amaliy yo'nalgan malakalarni shakllantirish, tajribaga ega bo'lish va kompetensiyani shakllantirish maqsadida faoliyatni bilimlar ustida tashkil etishni oladi.

Tajriba shunday kategoriya bo'lib, u kompetentli va shaxsga yo'naltirilgan, shaxsiy-faoliyat va kulturologik yondashuvlarni aniq ajratib beradi. Individual ta'lim trektoriyasini (shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda) tuzish va madaniyatga bog'lash, uni tushunish (kulturologik yondashuvda) yuqoridagi yondashuvlarning maqsadi bo'lib, kompetentli yondashuv uchun esa faoliyatdagi shaxsiy tajribani orttirish va kompetensiyani shakllantirish vositasi hisoblanadi. V.A.Bolotov, an'anaviy va kompetentli yondashuvlarni o'zaro taqqoslab, quyidagi xulosaga keladi: "Kompetentli ta'lim modelining bilim beruvchi modeldan farqi shunchalik kattaki, u, go'yoki, shaxmat o'yini qoidalarini bilish bilan uni o'ynay olish malakasiga ega bo'lish kabidir". va yana shunday degan: "Doimiy bilimlar"ga o'rgatish, albatta kerak, lekin madaniy tajribasini muntazam yangilab turish qobiliyatisiz o'quvchini hayotga tayyor deb hisoblab bo'lmaydi». Qarama-qarshi yo'nalish vakillari (E.O. Ivanova, A.V. Xutorskoy) yondashuvlarni integratsiyalashuvi tomonidalar, bunda kompetentli yondashuv an'anaviy yondashuvni inkor etmaydi, balki o'quvchining sub'ektililigini qo'shgan holda qo'shimcha sifatida namoyon bo'ladi. Bu vaziyatda olimlar yakka tartibda mavjud bilimlarni malakaga va mahoratga muntazam aylanib borishini emas, balki jarayonning umumiylikini, bitiruvchini integral tayyorligini tahmin qilishmoqda. K.E. Bezukladnikov, B.A. Kruzelar masalani chet tillarni o'qitish metodikasi va lingvodidaktika darajasida o'rganishadi. Kompetentli yondashuvni olimlar tizimsifat yondashuv deb qabul qilishgan. Ularning fikricha, kompetentli yondashuv mohiyatan "Bilim Ko'nikma Malaka", shaxsga yo'naltirilgan, kognitiv, affektiv va ijtimoiy-madaniy yondashuvlarni yutib yuboradi, bunda u bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan oliy ta'limining til o'qitishdagi maqsadini o'zgartiradi, ta'lim jarayonining natijalariga bo'lgan fanlararo integratsiyalashgan talabni eng yuqori o'ringa qo'yadi". Kompetentli yondashuv tarkibidagi u yoki bu unsumni kuchaytirish masalasi faoliyatli- kompetentli yondashuv kabi tushunchaning paydo bo'lishiga va uni olimlar tomonidan asoslanishiga olib keldi (F.G.Yalalov). Bunda faoliyat tajribasi alohida didaktik birlik sifatida o'rganilib, u uchlikni yangi birlik bilan to'ldiradi: bilim – ko'nikma – malaka – faoliyat tajribasi. Yuqorida aytib o'tilgan yondashuvga shaklan yaqin va A.V. Usovoy, A.V. Elkonina, V.V. Davidova, A.I. Amonashvili, A.V. Petrova va

boshqalarning faoliyatga doir ilmiy maktablaridan kelib chiquvchi yondashuv bu - faoliyatli-kompetentli yondashuvdir. Unda kompetentli yondashuv potensial (joriy etilmagan, turg'un) emas, balki amal qiluvchi xarakterga ega. Kompetensiya faoliyatda paydo bo'ladi va u orqali shakllanadi. A.A.Verbinskiyning amaliy yo'naltirilgan ta'limning kontekst- kompetentli yondashuv doirasidagi profil va noprofil ditsiplinalarni kontekstual (kasbiy yo'naltirilgan) o'rganish imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq nuqtai nazarini ham unutmaslik lozim. Olimning fikricha, "Kompetentli yondashuv metodologiyasi va kontekst ta'lim nazariyasi imkoniyatlarining integratsiyalashuvi ta'limni yangilashdagi kontekst- kompetentli yondashuv haqida gapirishga imkon beradi". "Kompetentli yondashuv" globallashuv darajasiga nisbatan turli nutqai nazarlar mavjud. Kompetentli yondashuv olimlar tomonidan yangi ta'lim paradigmasi sifatida paradigma (I.A. Zimnyaya, A.A. Verbiskiy, Ye.V. Pryamikova), poliparadigmal yondashuvning tarkibiy qismi sifatida (V.I. Matis, O.V. Volodina) o'rganilgan. Poliparadigmal yondashuv o'zida turli paradigmalar va yondashuvlarni bir-birini kuchaytirish va to'ldirish nuqtai nazaridan o'zaro birgalikdagi harakatini oladi.

Ko'rib turganimizdek, nafaqat kompetentli yondashuv, uning boshqa yondashuvlar bilan o'zaro munosabatlari va aloqalarining turliligi, balki uni qabul qilish va tushunishning chuqurligi – bularning barchasi zamonaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining Yevropa ta'lim tizimiga yaqinlashuvi va bosqichma – bosqich o'qitishning kredit – modulli tizimiga o'tishi ham kompetentli yondashuvning o'zini anglashda ham uning mamlakat ta'lim tizimidagi roli va o'rnini anglashda yangi bir maydonni yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Введенский, В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога [Текст] // Введенский, В.Н. Педагогика. – 2003. – № 10. – Б. 51 – 55.
2. Вербицкий, А. А. Компетентностный подход в образовании [Текст] : проблемы и условия реализации / А.А. Вербицкий // Байкальский психологический и педагогический журнал. - 2006. - № 1-2 (7-8). - Б. 25-35.
3. Зеер, Э.Ф. Компетентностный подход к образованию [Текст] // Зеер Э.Ф. Образование и наука. – 2005. – № 3(33). – мар. – Б. 6.
4. Крузе, Б.А. Компетентностный подход в логике требований федерального государственного образовательного стандарта [Текст] // Крузе Б.А. Пермский педагогический журнал. – 2011. – №2. – Б.35 – 40.